



UDK: 636.2.034:636.084.523

Azim YANGIBOYEV,
O'zMU dotsenti v.b

Abdimalik YANGIBOYEV,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va botexnologiyalar universiteti Toshkent filiali o'qituvchisi, PhD

E-mail: abdimalikyangiboyev@gmail.com

TIQXMMI dotsenti, q.x.f.n. N.Sattorov taqrizi asosida

SIGIRLARNING OZUQANI SUT BILAN QOPLASH DARAJASIGA O'ZBEKISTON-83 VA XOSILDOR NAVLI LAVLAGI OZUQALARINING TA'SIRI

Аннотация

Sigirlarning mahsuldorlik yo'nalishini va ulardan foydalanishning samaradorligini baholashda sutdorlik koeffitsientini ya'ni har 100 kg tirik vazni hisobiga sut mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. 1-jadvalda tajriba guruhlaridagi sigirlarning ozuqani sut bilan qoplash ko'rsatkichlari keltiriladi.

Kalit so'zlar: sut, ozuqa, beda, lavlagi, xarajat, foyda, yog'dorlik, oqsil, quruq modda.

ВЛИЯНИЕ КОРМОВ УЗБЕКИСТАН-83 И ХОСИЛДОРСКОГО ЖУКА НА УРОВЕНЬ ПОКРЫТИЯ КОРМОВ МОЛОКОМ КОРОВ

Аннотация

Изучение коэффициента надоя, т.е. показателей надоев молока на 100 кг живой массы, важно при оценке направления продуктивности коров и эффективности их использования. В таблице 1 представлены показатели молочной обеспеченности коров опытных групп.

Ключевые слова: молоко, корма, люцерна, свекла, себестоимость, прибыль, жирность, белок, сухое вещество.

THE EFFECT OF UZBEKISTAN-83 AND HOSILDOR BEETLE FEEDS ON THE LEVEL OF COVERING THE FEED WITH MILK OF COWS

Annotation

It is important to study the yield coefficient, i.e. the indicators of milk production per 100 kg of live weight, when evaluating the direction of productivity of cows and the efficiency of their use. Table 1 shows the indicators of milk coverage of the cows in the experimental groups.

Key words: milk, feed, alfalfa, beet, cost, profit, fat content, protein, dry matter.

Kirish. Xashaki lavlagi chorvachilikda, chorva mollari, ayniqsa, sutdor qoramollar ratsionida muhim ahamiyatga ega, chunki u tarkibida uglevodlar ko'pligi bilan ajralib turadi. Uning ozuqaviy qiymati tarkibidagi uglevodlar, azotsiz ekstrakt moddalar, mineral tuzlar va vitaminlar bilan aniqlanadi. Chorvachilikda kuz-qish mavsumida xashaki lavlagi asosiy shirali ozuqalardan biridir. Bundan tashqari xashaki lavlagini chorva hayvonlari ratsioniga qo'shib berish orqali ularda dag'al va konsentrat ozuqalarning hazmlanishi ham yaxshilanadi. Demak, qoramollarda sut mahsuldorligini yaxshilashda xashaki lavlagi ildizmevalari juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xashaki lavlagi O'rta Yer dengizi atroflarida, Osiyo, Kavkazorti, Hindiston, Fransiya, shuningdek, Buyuk Britaniya, Skandinaviya mamlakatlarida ko'proq tarqalgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ozuqalar uglevodlari sog'in sigirlar tomonidan ularning to'yimli va mineral moddalarini xazmlanishi va ishlalishida muhim ahamiyatga ega. Ko'pgina ilmiy tadqiqotlarda N.V. Kurilov, R.T. Ayrepetov, A.S. Solun va boshqalar, A.P. Krotov, A.V. Kniga, I.A. Zimnovich, Ye.S. Vorobev va boshqalar S.V. Martinov, G.V. Provatorov, L.K. Ernst va boshqalar, A.P. Kalashnikov va boshqalar, S.N. Xoxrin, K.K. Karibayev, D.Q. Yuldashev, K. Dolga, A. Goombe et al, P. Mandevu, C. Ballard va bosh., L.M. Trevaskis, W.J. Fulkerson, Hall, C. Larson va bosh., R. Nekrasov, M. Varenikov va bosh. tomonidan uglevodlarning chorva mollari mahsuldorligi, mahsulotlari sifati, ozuqalarning so'rilishi va hazmlanishiga ta'sirlari yoritilib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy tadqiqotlar davrida tadqiqotlar quyidagicha bajarildi:

-ozuqalarning istemoli ikki kun davomida berilgan ozuqalar va ularning qoldiqlarini o'lchash;

-sigirlarning sut berishi- har 10 kunda bir marta nazorat sog'imini o'tkazish orqali har bir sigirda sog'ilgan sut miqdorini o'lchash;

- sut sifatini ko'rsatkichlarini o'rganish tajribalar boshi, o'rtasi va oxirida guruhlarning 10 bosh sigirlarining sutlarida yog'ligi, zichligi, quruq moddasi, yog'sizlantirilgan quruq sut qoldiqlari, qandini aniqlash-laboratoriyada standart talablari asosida OOO "Zamona Rano" MChJ laboratoriyasida va "Laktan" sut tahlilchisida;

Tahlil va natijalar.

Tajribadagi sigirlarning ozuqani sut bilan qoplash xususiyatlari

Sigirlardan sut mahsuldorligini va iqtisodiy samaradorligini baholashda ularning ozuqani sut bilan qoplash xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Biz quyida O'zbekiston-83 navli hashaki lavlagi berib boqilgan sigirlar bilan Xosildor navli hashaki lavlagi berib boqilgan sigirlarning ozuqani sut bilan qoplash xususiyatlarini aniqladik va taqqoslab eng samarali hashaki lavlagini aniqladik.

1-jadvalda O'zbekiston-83 navli hashaki lavlagi berib boqilgan sigirlarning ozuqani sut bilan qoplash ko'rsatkichlari keltiriladi.

1-jadval

O'zbekiston-83 navli hashaki lavlagi berib boqilgan sigirlarning ozuqani sut bilan qoplash ko'rsatkichi

Ko'rsatkichlar	Guruhlar		
	Nazorat	I tajriba	II tajriba
Laktatsiya davomida har bir bosh sigirga sarflangan ozuqa, ozuqa birligi	4143,9	4363,5	4290,3
305 kunda sog'ib olingan sut miqdori, kg	3610,6	4225,4	3833,8
4%-li sut miqdori, kg	3330,7	4035,3	3594,2
Bir kg tabiiy yog'likda sut ishlab chiqarishga sarflangan ozuqa birligi, kg	1,15	1,03	1,12
Bir kg 4%-li sut ishlab chiqarishga sarflangan ozuqa birligi, kg	1,24	1,08	1,19
Har 100 kg ozuqa birligiga ishlab chiqarildi: tabiiy yog'lilikdagi sut, kg	87,13	96,84	89,36
4%-li sut, kg	80,38	92,48	83,78

1-jadval ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, yuqori sut mahsuldorligiga ega sigirlar guruhlarida ozuqani sut bilan qoplash darajasi ham birmuncha yuqori bo'ldi. Masalan, o'tkazilgan tadqiqotlarimizda eng yuqori sut mahsuldorligiga ega I va II tajriba guruh sigirlari 1 kg tabiiy yog'lilikda sut ishlab chiqarishga nazorat guruhlaridagi sigirlarga nisbatan tegishli ravishda 0,12 yoki 11,6% va 0,03 yoki 2,7% ga kam ozuqa

birliqi sarflandi. Shuningdek, bir kg 4%-li sut ishlab chiqarishga ham I va II tajriba guruhlardagi sigirlar nazorat guruhdagi sigirlarga qaraganda tegishli 0,16 yoki 14,8% ga va 0,05 yoki 4,2% ga kam ozuqa birligi sarflandi. Har 100 kg ozuqa birligiga I va II tajriba guruhlardagi sigirlar nazorat guruhidagi sigirlarga nisbatan tegishli ravishda 9,71 kg yoki 11,1% ga va 2,23 kg yoki 2,6% ga tabiiy yog'lilikdagi sut hamda 12,10 kg yoki 15,1% va 3,40 kg yoki 4,2% ga ko'p 4%-li sut ishlab chiqardilar.

2 jadvalda hosildor navli hashaki berib boqilgan sigirlarning ozuqani sut bilan qoplash ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.


2-jadval

Hosildor navli xashaki lavlagi berib boqilgan sigirlarning ozuqani sut bilan qoplash ko'rsatkichi

Ko'rsatkichlar	Guruhlar		
	Nazorat	I tajriba	II tajriba
Laktatsiya davomida har bir bosh sigirga sarflangan ozuqa, ozuqa birligi	4109,7	4363,5	4290,3
305 kunda sog'ib olingan sut miqdori, kg	3585,4	4210,4	3813,5
4%-li sut miqdori, kg	3327,7	4033,8	3592,9
Bir kg tabiiy yog'lilikda sut ishlab chiqarishga sarflangan ozuqa birligi, kg	1,19	1,08	1,16
Bir kg 4%-li sut ishlab chiqarishga sarflangan ozuqa birligi, kg	1,34	1,18	1,27
Har 100 kg ozuqa birligiga ishlab chiqarildi: tabiiy yog'lilikdagi sut, kg	84,27	94,72	86,62
4%-li sut, kg	79,92	91,79	82,52

2-jadval ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, hosildor navli xashaki berib boqilgan yuqori sut mahsuldorligiga ega sigirlar guruhlarida ozuqani sut bilan qoplash darajasi ham birmuncha pastroq bo'ldi. Masalan, o'tkazilgan tadqiqotlarimizda eng yuqori sut mahsuldorligiga ega I va II tajriba guruh sigirlari 1 kg tabiiy yog'lilikda sut ishlab chiqarishga O'zbekiston-83 navli hashaki lavlagi berib boqilgan guruhlardagi sigirlarga nisbatan tegishli ravishda 0,05 yoki 4,8% va 0,04 yoki 3,5% ga ko'proq ozuqa birligi sarflandi. Shuningdek, bir kg 4%-li sut ishlab chiqarishga ham Hosildor navli hashaki lavlagi berib boqilgan I va II tajriba guruhlardagi sigirlar O'zbekiston-83 navli hashaki lavlagi berib boqilgan I va II guruhlardagi sigirlarga qaraganda tegishli 0,1 yoki 9,2% ga va 0,08 yoki 6,7% ga ko'p ozuqa birligi sarflandi. Hosildor navli hashaki lavlagi berib boqilganda har 100 kg ozuqa birligiga I va II tajriba guruhlardagi sigirlar O'zbekiston-83 navli hashaki lavlagi berib boqilgan guruhlardagi sigirlarga nisbatan tegishli ravishda 2,12 kg yoki 2,23% ga va 2,74 kg yoki 3,16% ga tabiiy yog'lilikdagi sut hamda 0,69 kg yoki 0,75% va 1,26 kg yoki 1,5% ga kam 4%-li sut ishlab chiqardilar.

Ushbu ma'lumotlar O'zbekiston-83 navli hashaki lavlagi berib boqilgan tajribadagi sigirlar ozuqani sut mahsuloti bilan yaxshi darajada qoplash xususiyatlariga ega bo'lishidan va ulardan foydalanish samarali ekanligidan dalolat beradi.



1-rasm O'zbekiston-83 navli xashaki lavlagi va hosildor navli hashaki lavlagi berib boqilgan sigirlarni Har 100 kg ozuqa birligiga ishlab chiqarilgan tabiiy yog'lilikdagi sut kg va 4% li sut kg bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichli I tajriba guruhlarini solishtirish

Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'yicha O'zbekiston-83 navli hashaki lavlagi berib boqish yuqori mahsuldor sigirlar guruhida ozuqani sut bilan qoplash darajasi Hosildor navli hashaki lavlagi berib boqilgan sigirlardan yuqori bo'lishni ko'rsatdi, bu esa O'zbekiston-83 navli hashaki lavlagi ildizmevasidan foydalanish samarali ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar. Xo'jalikning imkoniyatidan kelib chiqqan holda tajriba ratsionida xo'jalik ratsionida kuzatilayotgan to'yimli va mineral moddalar bilan sigirlarning talablarini qondirishdagi salbiy holatlar kamaytirildi.

2. Sog'in sigirlarni oziqlantirish turini baholashda ular ratsionining tarkibini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki oziqlantirish darajasi o'zgartirishga ratsion tarkibidagi ozuqalar salmog'ini o'zgartirish orqali erishish mumkin.

ADABIYOTLAR

- Allashov B.D., Yangiboyev A.E., Kuchchiyev O.R. Qora-ola zotli qoramollar sut mahsuldorligiga ozuqabop lavlagining ta'siri hamda elita urug'larini yetishtirishning jadal usuli. Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining 12-14 may 2022 yildagi "Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy etishning istiqbolidagi vazifalari" mavzusidagi fujuman materiallari to'plami. 111-bet
- Юлдошев Д., Результаты использования гидролизного сиропа из хлопковой шелухи в рационах лактирующих коров. В кн.: Полнотсенное кормление сельскохозяйственных животных и эффективность подготовки кормов к скармливанию 1989 й, 17-19 б.
- Yuldashev D. K., Gulyamkadirov K. O'zbekiston ozuqalarida uglevodlar miqdori. k.: O'zbekistonda chorvachilikni jadallashtirishning ilmiy asoslari, 1994, 57-65
- Зимнович И.А., Веселова И. А. Влияние структуры рационов кормления лактирующих коров на продуктивность и состав молока. В сб.: Совершенствование кормовой базы и кормления с/х животных. Горкий 1979, с 42-49.
- Зотов В.С. Использование питательных веществ лактирующими коровами при включении в рацион разных форм углеводов. Автореферат дисс. к. с/х.н. Дубровицы, ВИЖ, 1983.
- Зотов В.С. Кириллов М. П. Показатели рубцового пищеварения у коров при использовании в рационах различных источников углеводов. В кн.: Кормление и разведение сельскохозяйственных животных. Саранск. 1985, с.83-87.
- Зубков Д.П., Ткачев И.Д. – Выращивание семян без высадочном способом Сахарная свекла. 1975. 6, с.30-32.
- Зуев А. М. и др. Скармливание легкопереваримых углеводов в рационах молочных коров. Труды Приморского СХИ, 1972, вып. 22, с.28-34.
- Зулфиқаров М.Х. Чорвачиликда озуқа базасини мустаҳкамлаш, озуқа экин майдонларидан самарали фойдаланиш, носилдорликни ошириш. "Республикада чорвачиликни ривожлантириш истиқболлари" мавзусидаги Чорвачилик ва паррандачилик илми-тадқиқот институти Республика илмий-амалий конференция материаллари то'плами. Тошкент 2019 йил. 229-231 бетлар.
- Георгиевский В. Н. Практическое руководство по физиологии животных. М. "Высшая школа" 1976, 652 с.
- Гертман, А.М. Атсидоз рубца - как фактор, сдерживающий молочную продуктивность / А.М.Гертман, Т.С.Кирсанова, А.Ю.Федин // Ученые записки Казанской государственной академии ветеринарной медицины им. Н.Э. Баумана. -2010. №. 203. С. 83-87.
- Пресняков П.В. - Опыт посева сахарной свеклы на семена без высадочном способом. Сахарная промышленность, 1956, 6. С. 46-48
- Раеская, Ю.И. Методы зоотехнических и биохимических анализов кормов, продуктов обмена и животноводческой продукции / Ю.И.Раеская, В.Н.Сухарева, В.Т.Самохин. - Дубровицы: ВИЖ. - 1970. - 123 с.